

## UNLI VA UNDOSSH TOVUSHLARNI O'RGANISHDA ORFOGRAFIK MASHQLARNI TASHKIL ETISH.

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
309-guruh talabasi Sadirova Zarnigor Mahammadsidiqovna.

### Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga unli va undosh tovushlarni o'rganishda orfografik mashqlarni samarali tashkil etish masalasi yoritiladi. O'quvchilarda tovush -harf munosabatini anglash, to'g'ri talaffuz va savodxon yozuv malakalarini shakllantirishda mashqlarning ahamiyati ilmiy -metodik manbalar asosida tahlil qilingdi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar va mashq turlari keltiriladi.

Kalit so'zlar: Unli tovushlar, undosh tovushlar, orfografiya, savod o'rgatish, tovush va harf munosabati, boshlang'ich ta'lim, fonetik ko'nikma, yozuv malakasi.

### Аннотация

В данной статье рассматриваются аспекты эффективной организации орфографических упражнений при изучении гласных и согласных звуков в начальных классах. На основе анализа научно-методических источников раскрывается роль практических заданий в формировании у учащихся понимания звуко-буквенных отношений, навыков правильного произношения и грамотного письма. Предложены методические рекомендации и систематизированные виды упражнений для совершенствования процесса обучения грамоте.

**Ключевые слова:** гласные звуки, согласные звуки, орфография, обучение грамоте, звуко-буквенные отношения, начальное образование, фонетические навыки, навыки письма.

### **Abstract**

The article examines the effective methodology of organizing orthographic exercises for teaching vowel and consonant sounds to primary school pupils. Based on an analysis of scientific and pedagogical literature, the study evaluates the role of practical exercises in enhancing students' phonetic awareness, sound-to-letter correspondence, and orthographic proficiency. The paper concludes with practical guidelines and a classified set of exercises designed to improve literacy skills in the primary education system.

**Keywords:** vowel sounds, consonant sounds, orthography, literacy acquisition, sound-letter correspondence, primary education, phonetic skills, writing proficiency.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodning savodxonlik darajasini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: „Biz uchinchi Renessans poydevorini barpo etishni strategik vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, buni eng avvalo ta'lim tizimidan, maktabdagi ona tili va adabiyot darslaridan boshlashimiz lozim. Zero, ona tili -millatning ruhidir.“

Inson tiliday murakkab,serqirra,servazifa hodisa kam uchraydi.Til faqat kishilar o'rtaasida aloqa vositasi bo'libgina qolmasdan,ularning olam haqida to'plagan bilimlarini kelajak avlodga yetkazuvchi kishilarda estetik-emotsional his tuyg'u uyg'otuvchi qudratli vositadir.1993-yildan boshlab o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi.Tovush murakkab tushuncha bolgani uchun boshlang'ich

sinflarda unga ta'rif berilmaydi, ammo amaliy ishlar olib boriladi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi, so'zning leksik ma'nosi, so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan: ota-ona, kul-gul. Nutq tovushlari tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli ravishda, muloqot uchun xizmat qiladi. Alifbo davrida unli tovushlardan boshlab tovush- harf bilan tanishtirish boshlanadi. Undosh tovushlar esa ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim: a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz; b) harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz; v) harf- tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi. 2-4-sinflarda ham so'zni tovush tomonidan tahlil qilish mashqlari o'tkazilib, fonetik bilimlar takomillashtirib boriladi. 3- sinfda undosh tovushlar ovozning ishtirokiga ko'ra, jarangli va jarangsiz bo'ladi, deb o'rgatiladi. Tovushlar 2 guruhga bo'linadi: unli va undosh tovushlar. Uni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilar hisobga olinadi:

1. Talaffuz qilinish usuli.
2. Ovoz va shovqinning ishtiroki
3. Bo'g'in hosil qilish xususiyati

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida 23ta undosh, 6ta unli, 1ta tutuq belgisi mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari va orfografik o'rganish jarayoni. Grafik malakani shakllantirishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir maromda yozish so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali fikrlash, eslab qolish, nutq va e'tibor jihatdan

rivojlanish bosqichida bo'lganliklari sababli, orfografik o'rganish jarayoni ularning yosh psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Ular uchun obrazli og'zaki va yozma mashqlar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek boshlang'ich ta'lim bosqichida ko'plab so'zlar talaffuzdagi farq tufayli xato yoziladi. Bu esa ularning o'qish va yozish malakalarini tizimli mashqlar orqali rivojlantirishni taqozo etadi.

Orfografik mashqlarning turlari.

1. To'ldirish mashqlari-jumlada yoki matnda tushirib qoldirilgan harf yoki so'zni to'g'ri shaklda yozish orqali orfografik qoidalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Tuzatish mashqlari-noto'g'ri yozilgan so'z yoki gapdagi xatoni topib, uni to'g'rilab yozish orqali o'quvchi diqqatini oshiradi va xatoni ko'ra olish malakasini rivojlantiradi. So'zlardagi unli undosh harflarni o'rniga to'g'ri harfni yozish mashqlari.

3. Ko'chirish mashqlari- matn yoki so'zlarni yozuvdan yozuvga nusxa ko'chirish orqali imlo qoidalariga rioya qilish o'rgatiladi. Matndan faqat unli yoki undosh harflar bilan boshlangan, tugagan so'zlarni ajratib yozish.

4. Imlo diktantlari- o'qituvchi tomonidan og'zaki aytilgan matnni yozish orqali orfografik xotira va eshitish asosida yozish ko'nikmalari shakllanadi. Unli va undosh imlosiga oid so'zlarni va gaplarni yozdirish.

5. Test shaklidagi topshiriqlar- variantli tanlov, juftlashish, bo'sh joyni to'ldirish orqali orfografik bilimlarni baholash imkonini beradi.

Yuqoridagi mashqlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanganda, o'quvchilarda orfografik sezgi(imlo sezuvchanligi) shakllanib boradi. Bu esa yozma nutqning aniq va to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o'rgatish zarur:

1. Bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin( masalan , maktab so'zidagi b harfi p tovushini, maktabim so'zidagi b harfi b tovushini ifodalaydi.)

2) Jajji, jo'ja so'zlaridagi j tovushi(jarangli, portlovchi) ham, jurnal, vijdon so'zlaridagi j tovushi(jarangli, sirg'aluvchi) ham bitta j harfi bilan ifodalanadi;

2) SH, ch harf birkmalari ham bir tovushni ifodalaydi(shamol, choy).

Bir necha mashqlarni ko'rib chiqamiz.

Bunda o'quvchilarga talaffuzni eshittirib farqini sezdirish muhim. O'ziga ham talaffuz qildirish kerak.

1) Jo'ja, jajji -J, sham -sh, choy-ch.(Do'skaga so'zlarni yozamiz, o'quvchilar so'zlarni talaffuz qiladilar va nechta tovush eshitganini sanaydilar.

2) Nuqtalar o'rniga j,sh, ch harflarini qo'ying va nechta tovush va harf borligini aniqlang.

.....am,.....oy.....jo...a, i....., .....oynak, ...ar .

„Oltin qafas,, Metodi. Harflar aralash tarzda beriladi,,Qafas'' doirachaga unli undosh harflar ajratiladi,so'zlar tuziladi.Tezkorlik va aniqlik talab etiladi.

3) „Tovushni top ‘o'yini .O'qituvchi so'z aytadi,o'quvchilar harf kartochkalarini ko'taradi. Bu usul eshitish sezgirligini rivojlantiradi.Bundan tashqari interfaol metodlarni qo'llash; audio yozuvlar orqali orfografik hushyorlikni tekshirish mashqlari o'tkazish „Rangli tovushlar ''metodi orqali o'quvchini barcha nutq tovushlari va harflarini o'zlashtirganligini tekshirishimiz mumkin. Ekranda visual content orqali harflar rang-barang ma'lum so'z yoki gap hosil qilish uchun ko'rsatiladi.O'quvchi ulardan so'z hosil qiladi va unli undosh harflarga ajratadi.

**Aytilish va yozilishi farq qiluvchi undoshlar b-p d-t**

**1-topshiriq: To'g'ri harfni tanla**  
Qavs ichidan to'g'ri harfni tanlab, so'zni yoz:  
1. (b/p)ola → \_\_\_\_ola  
2. ki(b/p) → ki \_\_\_\_  
3. ki(t/d)ob → ki \_\_\_\_ob  
4. (b/p)echka → \_\_\_\_echka  
5. o(t/d) → o \_\_\_\_  
6. (d/t)araxt → \_\_\_\_araxt

**2-topshiriq: So'zni to'g'ri yoz**  
Quyidagi so'zlarda XATO HARF bor. To'g'ri yoz:  
1. polta \_\_\_\_\_  
2. dap \_\_\_\_\_  
3. kitop \_\_\_\_\_  
4. bad \_\_\_\_\_  
5. tap \_\_\_\_\_

**3-topshiriq: So'zni to'g'ri yoz**  
Quyidagi so'zlarda XATO HARF bor. To'g'ri yoz:  
bol → pol → pol  
kitab → kitop → kitop  
daraxt → taraxt → taraxt  
top → tob → bad  
padar → badar → badar

**4-topshiriq: Rangla va ajrat**  
Agar so'z to'g'ri bo'lsa qo'y, noto'g'ri bo'lsa x qo'y:  
1. kitob   bur  
2. kitop   pola  
3. osh   daftar  
4. aliq   taftar

**5-topshiriq: So'zni to'ldir**  
Nuqtalar o'miga b/p/d/t harflaridan mosini yoz:  
1. \_\_\_\_ola  
2. \_\_\_\_aftar  
3. ki\_\_\_\_ob  
4. \_\_\_\_osh  
5. \_\_\_\_aliq  
6. \_\_\_\_om

**6-topshiriq: To'g'rimi**  
yoki noto'g'rimi?  
A'gar so'z to'g'ri bo'lsa qo'y, noto'g'ri bo'lsa x qo'y:

**Qo'sh undoshlar**  
Farqlash uchun topshiriqlar!

**1 To'g'ri harfni qo'y**  
Nuqtalar o'rniga qo'sh undoshlarni qo'yib yozing:  
1. ka...a  
2. su...a  
3. issiq  
4. mu...im  
5. qi...at  
6. mi...at

**2 So'z yoz**  
5 ta qo'sh undosh bor so'z yozing:  
1. \_\_\_\_\_  
2. \_\_\_\_\_  
3. \_\_\_\_\_  
4. \_\_\_\_\_  
5. \_\_\_\_\_

**3 Xatoni top va to'g'ri la**  
Noto'g'ri yozilgan so'zlarni topib, to'g'risini yozing:  
katta → \_\_\_\_kata  
summa → \_\_\_\_suma  
issiq → \_\_\_\_isi q  
jannat → \_\_\_\_janat  
millat → \_\_\_\_mila t

**4 Top va Chiz**  
Qo'sh undosh bor so'zlarni toping va belgilashga chizing:  

kitob	katta	bola
issiq	daraxt	ikki
mak tab	qimmat	xat

**5 Bo'yab chiq**  
Qo'sh undoshli bor so'zlarni yashil rangga bo'ya  
Qo'sh undoshi yo'q so'zlarni sariq rangga bo'ya

**6 Gap tuz**  
Quyidagi so'zlar bilan 1 tadan gap tuzing:  
katta  
issiq  
jannat  
alloma

**7 Ijodiy**  
3 ta qo'sh undoshli so'z yozing:  
1. \_\_\_\_\_  
2. \_\_\_\_\_  
3. \_\_\_\_\_

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mustahkam imlo ko'nikmalarini shakllantirishdir.Buyuk pedagog Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy ona tili ta'limida mashqlarning tizimli bo'lishiga alohida urg'u bergan.Uning fikricha ,bolaning yozma nutqi uning eshitish, ko'rish va qo'l matorikasi

bilan uzviy bog'liqdir. Mashq qilish- bu shunchaki ishni takrorlash emas, balki ongli ravishda mahoratni takomillashtirishdir."Ushinskiy orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi tamoyillarni ilgari surgan:

- 1.Ko'rish xotirasi:So'zning shaklini eslab qolish.
- 2 Eshitish tahlili: Tovush va harf munosabatini anglash.
- 3Qo'l harakati : yozuv jarayonida mexanik xotirani shakllantirish.

Lev Vigotskiy: Ichki nutq va yozuv". Psixolog mashqlar bolada mavhum tafakkurni rivojlantiradi. Bola yozishni o'rganayotganda o'zining ichki nutqini tashqi moddiy shaklga o'tkazadi.Bugungi kunda olimlar orfografik mashqlarni „algoritmash" bilan bog'lashadi.Ya'ni,bola xatoli vaziatga duch kelganda ma'lum bir harakatlar ketma-ketligini bajarish kerak:

- 1.Shubhali harfni topish.
- 2.Qaysi qoidaga tegishli ekanini aniqlash.
- 3Tekshiruvchi so'zlarni tanlash.
- 4.To'g'ri yozish.

Imlo qoidalarning harflar imlosi (Unli va undoshlar) bo'limida keltirilishicha tutuq belgisi(')unlidan keyin kelsa,unlini cho'ziqroq talaffuz qilishni bildiradi,(ma'no, e'lon).Undoshdan keyin kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishni bildiradi (sur'at),(jur'at).Imlo diktanti yozish jarayonida nafaqat so'zlarni aytirish, balki ularning nima uchun shunday yozilishini so'rash o'quvchining xotirasida qoidani mustahkamroq saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda:Orfografik mashqlar shunchaki ko'chirish emas ,balki, miyaning tahliliy markazlarini ishga soluvchi aqliy gimnastikasi.Zamonaviy boshlang'ich sinf darsliklaridagi mashqlar tizimi oddiydan murakkabga va izchillik tamoyillariga asoslangan.Agar mashqlar tizimi har kuni,ongli bajarilsa, K.D.Ushinskiy

ta'kidlaganidek, „tabiiy savodxonlik” shakllanadi. To'g'ri tashkil etilgan mashqlar o'quvchini nafaqat imlo xatolaridan xalos etadi, balki uning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirib, ona tiliga bo'lgan cheksiz hurmatini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi „Ta'lim to'g'risidagi qonuni”. (2020).

2. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi imlo qoidari (1995-yil).

2. G'ulomov A., Ne'matov H., „Ona tili mazmuni” - Toshkent, 1995.

3. Qosimova K., Matchonov S., „Ona tili o'qitish metodikasi” - Toshkent: „Nosir”, 2009.

3. Vigotskiy L.S., „Tafakkur va nutq”

4. Ushinskiy K.D., „Ona tili”